ALISHER NAVOIY ASARLARINING TILI VA USLUBI

Tangriyeva Umida Allaberganovna
Urganch davlat universiteti akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning badiiy mahorati, tilga bo‘lgan munosabati va ijodiy uslubi tahlil qilindi. Unda shoirning she’riy va nasriy asarlarida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalangani, badiiy-tasviriy vositalarni mohirona qo‘llagani ta’kidlandi. Navoiy asarlarida fikrning aniqligi, qisqaligi va mazmunning chuqurligi asosiy o‘rin egallashi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, maqolada shoirning xalq og‘zaki ijodi, maqol va hikmatli so‘zlardan samarali foydalanganligi, ularni o‘z ijodida rivojlantirib, yangi badiiy ifodalar yaratgani yoritildi. Navoiy ijodida o‘xshatish, sifatlash, istiora va mubolag‘a kabi badiiy vositalarning keng qo‘llanilishi uning asarlarining ta’sirchanligini oshirishi qayd etildi.*

Kalit so`zlar*: badiiy mahorat, tasvir vositalari, she’riyat tili, lirika, tasviriy-badiiy vositalar, o‘xshatish, sifatlash, istiora, mubolag‘a, xalq tili, xalq og‘zaki ijodi, lug‘aviy birliklar, musiqiylik, adabiy-badiiy nutq.*

Alisher Navoiyning barcha asarlari o`zbek adabiy tiliga, ayniqsa, badiiy adabiyot tiliga asos soluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning she’riy va nasriy ijodida o‘zbek tilining butun boyligi va qudrati, juda katta imkoniyatlari, xilma-xil ixcham grammatik shakllari va adabiy-badiiy vositalari o‘zining to‘la va aniq ifodasini topdi. Shuni aytish kerakki, she’riy asarlarning tili bilan nasriy

asarlarning tili to‘la ravishda bir-biriga o‘xshash bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra ularning har birini alohida bayon qilish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Navoiy o‘zining barcha asarlarida fikrning, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar bayonining aniqligiga, to‘g‘riligi va qisqaligiga katta e’tibor beradi:

Kishi chinda so‘z desa zebodurur,
Necha muxtasar bo‘lsa a’lodurur.

Odatda she’riyat tili o‘zining badiiy bezalganligi bilan, maxsus badiiy bo‘yoqlar va badiiy, lug‘aviy birliklarning keng qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat Navoiyning lirikasida ham, epik asarlarida ham birday ko‘zga tashlanib turadi. Navoiy dastlab asosiy diqqatni asarning badiiyligiga, mazmun bilan shaklning mutanosibligiga, ifodaning kuchliligi va tasvirning aniqligiga qaratadi. Buning uchun u tilning barcha tasviriy-badiiy vositalaridan keng foydalanadi va shu orqali kuchli ta’sirchanlikka, ifodalilikka erishadi, hayajonlilik va jonlilikni ta’minlaydi.

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qrosinmu deyin!?
Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin!?

Navoiy har bir g‘azalning, ruboiy, qit’a va tuyuqning yuksak adabiyot asari bo‘lishi uchun juda katta kuch sarf qiladi, umumxalq tili boyliklarini mohirlik bilan ishlatish orqali murakkab falsafiy mushohadalarni, nozik fikrlar, his-tuyg‘ularni, kishining turlicha ruhiy holatini aks ettiradi, shular asosida chuqur mantiqiy xulosalar chiqaradi:

Furqat ichra sharbati la’ling visoli kam bo‘lur,
Garchi derlar: talx daryoda chuchuk suv ham bo‘lur.

U yuqori badiiy uslub talablariga mos ravishda ajoyib o‘xshatish va sifatlashlar, istiora va majozlar, mubolag‘a va kinoyalar yaratadi. Bunday badiiy til vositalari esa uning asarlarida yuksak badiiylikni, shaklning mazmunga muvofiqligini ta’minlaydi, badiiy tasvirni kuchaytiradi, til va uslubning sodda, aniq, ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Misollar:

O‘xshatish:

Ko‘zung sarfitnayi olam tushuptur,

Qoshingdek bir yangi oy kam tushuptur.

Sifatlash:

Telba ko‘nglum po‘yasiga anbarin banding iloj,

Xasta jonim za’figa la’li shakarxanding iloj.

Istiora:

Ul quyoshim, ko‘nglum ichra hajrining ozoridur,

Jonim olsa ham, ko‘ngul jon birla minnatdoridur.

Mubolag`a:

Firoq isitmasi andoq tanimdin o‘t chiqarur,

Ki, gar tabib iligim tutsa, barmog‘i qabarur.

Navoiy o‘zbek tili lug‘atidagi oddiy, betaraf lug‘aviy birliklarni va ohang vositalarini shu qadar ustalik bilan qo‘llaydiki, buning natijasida chiroyli o‘xshatish, sifatlash va istioralarsiz ham nozik his-tuyg‘ularni, kechinmalarni aniq, ravshan ifodalaydi, so‘roq-kinoya, so‘roq-taajjub, so‘roq-tasdiq kabi vositalar orqali kuchli, badiiy o‘ynoqi misralar, baytlar tuzadi, yangi-yangi so‘z o‘yinlari, badiiy til vositalari yaratadi, adabiy-badiiy tilning qudratini namoyish etadi:

Sarv uzra gul butmasa, qad uzra ruxsori nedur?

Jon agar shirin emas - la’li shakarbori nedur?
Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Navoiy o‘z asarlarida she’riyat tilini xalq tiliga, adabiy tilga yaqinlashtirishga harakat qiladi. O‘zigacha yaratilgan adabiyot, adabiy an’analardan, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalaridan ijodiy tarzda keng foydalanadi, xalq qo‘shiqlari singari sodda, tushunarli, ravon, musiqiy g‘azallar yaratadi. Eski turkiy tilga xos so‘z va iboralardan ham keng foydalanadi.

Liqo mumkin esa uchmoq tamug‘din qochmakim bo‘lmas,
Kishiga hech maqsude muyassar chekmayin emgak.

U xalq ijodiyoti asarlariga xos badiiy-tasviriy til vositalariga, xalq ta’birlariga, maqol va hikmatli so‘zlariga katta e’tibor beradi, ulardan foydalanish asosida o‘z g‘azallarining badiiyligini, tasvir, ifoda kuchini oshiradi, mazmunini kuchaytiradi, purma’no umumlashmalar, xulosalar chiqaradi:

Ey, Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Yoz ochib, bildirdi qad birla sochi teng erkanin,
Zohir ulg‘ondek tun-u kun tengligi navro‘zdin.

Furqat ichra sharbat la’lining visoli kam bo‘lur,
Garchi derlar: talx daryoda chuchuk suv ham bo‘lur,

To‘kub may muhtasib, men yig‘ladim, lekin ul usrukka
Suv kelturmak hamon-u ko‘za sindurmak hamon ermish.

Navoiy o‘zining axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, boy hayotiy tajribalarini umumlashtirish ularga yakun yasash asosida yaratgan «Mahbub-ul qulub» asarida axloq-odob, fan va madaniyatning rivojlanishi, xalqning osoyishtaligi va baxt-saodati masalalariga doir o‘z aqidalarini, mulohazalarini bayon qiladi, xalq maqollari negizida o‘z hayotiy tajribalarining umumlashmasi sifatida juda ko‘p maqollar va hikmatli so‘zlar yaratadi: «Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar», «Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz», «Tiliga iqtidorlig` - hakimi xiradmand», «Qiymati oz - hurmati oz», «Xub yirtiq to‘n bila ham xub, gul yamoqliq chaponi bila mahbub», «Yaxshidin yomonlar ham yomonlig` ko‘z tutmas», «Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig`i so‘z bila», «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim», «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur», «Oz degan oz yanglishur, oz yegan oz yiqilur», «Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt» va boshqalar. Bu hikmatli so‘zlarning ko‘pchiligi xalq maqollariga aylanib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy o‘z ijodida o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olgan buyuk adibdir. U badiiy-tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalanib, asarlarining ta’sirchanligi va mazmunan chuqurligini oshirgan. Navoiy xalq og‘zaki ijodi unsurlarini ijodiy rivojlantirib, adabiy tilni yanada boyitgan va uni xalq tiliga yaqinlashtirgan. Shuningdek, uning sodda, ravon va aniq ifoda uslubi o‘quvchiga chuqur ma’no va falsafiy fikrlarni oson yetkazishga xizmat qiladi. Shu sababli Navoiy ijodi nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘zbek adabiyoti va tilining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. “O`zbek adabiy tili tarixi”. O`quv qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi nashriyoti, 1995.

2.Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug`atayn”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.

3. G`aniyev I. “Alisher Navoiyning tilshunoslik qarashlari”. – Toshkent: Fan nashriyoti. 2006.

4.Qosimov B. va boshqalar. “Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti”. - Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2004.

5. Qurbonov M. “Alisher Navoiyning tilshunoslik merosi”. – Toshkent: Universitet, 2011.

6.Abdurahmonov G`., Rustamov A. “Navoiyning til mahorati”. – Toshkent: Fan, 1979.